

“Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkida yana bir rezident o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ydi

// 18.02.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-industrial-texnoparkida-yana-bir-rezident-o-z>



Joriy yilning 18-fevral kuni “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkida “Kmita Polymers” korxonasi ishlab chiqarish majmuasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov, “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki rahbariyati, “Kmita Polymers” korxonasi bosh direktori, ishchi-xodimlar va OAV vakillari ishtirok etishdi.



"Kmita Polymers" korxonasi Rossiya Federatsiyasining "Polymers" kompaniyasi negizida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekistonda import o'rnini bosuvchi yangi turdagi maxsus polimer plyonkalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Bugungi kunda loyiha doirasida 15,0 mln AQSh dollari qiymatidagi to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalar o'zlashtirildi va dastlabki bosqichda 50 ta yangi ish o'rni yaratildi. Loyihaning navbatdagi bosqichlari ishga tushirilishi bilan ish o'rinlari soni 110 nafarga yetadi. Bu bilan mamlakatimizda maxsus polimer termousadkali cho'ziluvchan plyonka kabi bir qator yuqori qo'shilgan qiymatga yega mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.



Yangi korxonada 6 ta ishlab chiqarish liniyasiga mo'ljallangan bo'lib, oyiga 1500 tonnagacha tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Bunda guruhli qadoqlashdan tortib, qishloq xo'jaligi, himoya va oziq-ovqat sanoatining murakkab pilyonkalarigacha bo'lgan keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.



Korxonaning ishga tushirilishi Markaziy Osiyo mintaqasida qadoqlash sanoatini rivojlantirishiga muhim hissa qo'shadi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati